

ILK O'RTA ASLARDA XORAZM QO'RG'ONLARI

Musayeva Gavharjon Alisherovna

QDU magistratura bo'limi

Arxeologiya yo'nalishi magistranti

Annotatsiya: maqolada Xorazmda joylashgan qadimiy yodgorliklar qo'rg'onlarning qisqacha tarixi va ularni avaylab-asrash zarurligi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qo'rg'on, Xorazm, Fir saroyi, Burgutqal'a, Teshikqal'a, Kuyukqal'a, Mizzakhon

Xorazm hududidan ilk o'rta asrlar davriga oid shahar va mustahkamlangan qo'rg'oncha qoldiqlari topib o'rganilgan. Fir saroyi, Burgutqal'a, Teshikqal'a, Kuyukqal'a, Mizzakhon va boshqalar shular jumlasidandir.

Burgutqal'a, Teshikqal'a qasr-istehkomlari VI-VIII asrlarga mansubdir. Mazkur davrda qal'alar balandligi 4-8 m bo'lган mustahkam tagkursi (platforma) ustiga qurilgan. Burgutqal'a xarobalari eramizdan avvalgi I asrda odamlar yashaydigan 200x150 metrlik hajmdagi qo'rg'on bo'lганligi aniqlangan. Bizgacha yetib kelgan Burgutqal'a xarobalari VII—VIII asrlardan boshlab qayta qurilgan qal'a-qo'rg'on hisoblanadi. Qal'a to'rt tomoni baland istehkomli devor bilan o'rab olingan. Qo'rg'on maydonini (100 x 160 m) o'rab turuvchi devorning balandligi 10 metr bo'lib, uning pastki qismi qalinligi 2,5 metr keladi.

Qo'rg'on devoriga yopishtirilib tashqariga g'ishtdan val shaklida qurilgan minora inshootining yuqori qavati paxsa devordan bo'lib, mudofaarning mustahkam bo'lishini ko'zlab qilinganligini ko'rsatadi. Minoradagi navbatchi soqchilarning mo'ljalga olish teshiklari kengligi 20 santimetr bo'lib, balandligi 30 santimetri tashkil etsa-da, tashqaridan 1 metr ko'rinish beradi. Minoraning pastki qavatidagi nishonga olish joyi qat'iy tartibda parallel ishlangan. Bu esa kuzatuv punktlarida turgan himoyachilarining bostirib kelayotgan dushmanga aniq zarba berishlarini ta'minlash bilan birga qayerdan turib qarshilik ko'rsatayotganligini sezdirmaslik maqsadida ishlanganligidan dalolat beradi.

Burgutqal'ada qo'shimcha past to'siq devorlarining bo'lганligi qadimgi harbiy san'atdagi yutuqlardan foydalanishning ko'rinishidir. Past to'siq devor urush paytida devor buzuvchi mashinalarning hujumidan qal'a aholisini himoya qilishga mo'ljallangan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, xorazmshoh Chagon ukasi Xurshod turgan Burgutqal'aga qarshi urush ochadi. Xurshod boshchiligidida burgutqal'aliklar shoh CHagon qo'shinlarini yengib, vohadan va Xorazmdan surib tashlaydilar. O'z ukasining qo'shinlaridan yengilgan shoh Chagon nomardlik qilib, Xorazmni o'zlariga qaram qilib olishga shay turgan arab bosqinchilariga Xurshodni yengib olishda yordam so'rab murojaat qiladi. Natijada arab qo'shinlari 712 yilda Xorazmning poytaxti Katni, keyin Burgutqal'a va uning atrofidagi aholi punktlarini uzoq kurashlardan keyin bosib oladi va qarshilik ko'rsatganligi uchun aholini qirib tashlaydi. Natijada Burgutqal'ada hayot so'nadi. Qal'a atrofida bu qirg'indan omon qolgan aholi yana bir asrga yaqin hayot kechirgan. Arablar istilosidan ancha keyin, ya'ni X asrda Burgutqal'a va uning atrofida turli to'qnashuvlar hamda suvsizlik oqibatida hayot tugaydi. Odamdar suvg'a qulay joylarga ko'chib ketadilar.

Teshikqal'a maydoni 1 getktarni egallaydi. Qal'a mudofaa inshootlariga ega bo'lgan, unga faqat ko'tarma yo'l orqali kirilgan. Bu yerdan devorlarga ishlangan rasmlar, gilam parchalari, tangalar topilgan. Qal'a VII-VIII asrlarda qurilgan.

Teshikqal'a VI—VIII asrlarga oid afrig'iylar davrinining ko'shkidir. Qal'a Ellikqal'a tumanidagi "Qirqqiz" ovuli hududida joylashgan. Bu qal'a VI-VIII asrlar hayoti va turmushini ifodalovchi muhim tarixiy obidalardan biri hisoblanadi.

Teshikqal'a qurilishi me'morchiligining boshqa qal'alarga nisbatan o'zgacha tomoni shundaki, unda ayrim xonalar usti gumbaz qilib bostirilgan. Ya'ni, bu qal'a qurilishida yangicha me'morchilik uslublari qo'llanila boshlangan.

Teshikqal'a vohasidagi barcha aholi yashaydigan punktlarning mustahkamlanganligi va moddiy madaniyat qoldiqlarining joy jihatdan farq etish holati vohanining siyosiy va iqtisodiy jihatdan O'rta Osiyonning boshqa viloyatlaridan ajralib qolganligini ko'rsatadi. Bunday ahvol Xorazmning boshqa qal'alarida ham

uchraydi. Bu vaziyat arablar istilosidan sal oldingi davrga to‘g‘ri keladi. Demak, bu davrdagi ichki ziddiyatlar, to‘qnashuvlar kuchayib va hukmdorlar bir-birlari bilan kelishmasdan ajralgan holda hayot kechirishlari xorazmshoxlar oliv hokimiyatining zaiflashuviga olib kelgan hamda Xorazmnning arablar tomonidan tez va oson bosib olinishiga sabab bo‘lgan deyishga asos bo‘ladi.

Teshikqal’adagi hayot quldarlik tuzumining inqirozga uchrashi, feodalizmning shakllanishi va rivojlanishi, arablar istilosi, zardushtiylik o‘rniga islom dinining kirib kelishi kabi siyosiy voqealar bilan ham ifodalanadi.

Yuqoridaqilardan ko‘rinib turibdiki, Teshikqal’a vohamizdagi juda noyob tarixiy qal’alardan biri hisoblanadi.

V-VI asrlarda qurilgan Kuyukqal‘a 41 hektar maydonni egallagan. Uning ichki qismida ikkita qasr bo‘lganligi aniqlandi. Ilk o‘rta asrlar devorida Xorazmda ham xo‘jalik va madaniy hayot yuksak bo‘lganligini moddiy ashyolar tasdiqlaydi. Bu yerning yodgorliklari arablar istilosi arafasida tushkunlik bo‘lganini ko‘rsatadi.

VI-VII asrlarda yangi ko‘rinishdagi qishloqlar katta-katta oilalar yashaydigan mustahkamlangan qasr-qo‘rg‘onlar paydo bo‘la boshladi. Bunday qasr-qo‘rg‘onlar Xorazmda yaxshi o‘rganilgan.

Dehqonchilik bilan shug‘ullangan erkin aholi mustahkamlangan mayda qo‘rg‘onchalarda yashaganlar. Xorazmda ana shunday qo‘rg‘onlarning 200 dan ortig‘i topildi. Ular bir-biridan 200 m masofada joylashgan va 34 km kv maydonni egallagan. Har bir qo‘rg‘onning atrofi devor bilan o‘rab olingan. Arab tarixchisi Al-Makdisiying ma‘lumotiga ko‘ra Mizzakhon atrofida X asrda 12 mingta qo‘rg‘onlar bo‘lgan.

Sobiq ittifoq davrida ko‘hna qal’alar qismati achinarli tus olib, bu bebaho yodgorliklarga yaqin joylashgan ayrim xo‘jalik rahbarlarining beparovligi, tarix oldidagi mas’uliyatsizligi oqibatida ularning yemirilishiga, hatto kesaklari dalaga “o‘g‘it” sifatida ishlatalishigacha borib etdi.

Holbuki, dunyoning boshqa joylarida uchramaydigan bu noyob va betakror qal’alarning qoldig‘ini, uning har bir qarich tuprog‘ini ko‘zga surtib avaylab-asrashimiz, o‘zimizdan keyin keladigan avlodga juda bo‘lmasa, hozirgidek holatda bus-butun topshirishimiz darkor.

Adabiyotlar:

- 1.M.Allambergenov. Qadimiy mudofaa qo‘rg‘onlari.Toshkent; 2007 yil.
2. Vaynberg B. I. Qadimiy Xorazm tangalari. M., 1977.
3. Vorobyeva M. G. Antik davrdagi Xorazm sopolchiligi // TXAEE. IV. M.